

# Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag'ishlangan ma'rifiy tadbir tashkil etildi

Bugun, 16-fevral kuni O'zR FA Fizika-texnika institutida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag'ishlangan ma'rifiy tadbir tashkil etildi.



Tadbirda Institut jamoasi, el ardog'idagi san'atkor, O'zbekiston xalq artisti Tesha Mo'minov, taniqli ma'naviyat targ'ibotchisi, psixolog Dilorom Isakova ishtirok etdilar.



Tadbirni Fizika-texnika instituti direktori Xusniddin Olimov olib berdi. So'ngra el ardog'idiagi san'atkor Tesha Mo'minov buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebafo ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida alohida o'rinn tutishiga batafsil to'xtalib o'tdi. Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o'rganishimiz zarurligi haqida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdilar. Buyuk bobokalonimizning naslu nasabi, tug'ilgan kunidan to'umri poyonigacha qilgan betimsol ishlari haqida biz asosan tarixiy, adabiy-badiiy asarlar orqali yaxshi bilamiz. Hazrat Mir Alisher Navoiyning ko'plab she'rlari, asarlaridan o'qib berdilar:

Temurxon naslidin sulton Ulug'bek,

Ki olam ko'rmdi sulton aningdek.

Aning abnoyi jinsi bo'lди barbod,

Ki davr ahli biridin aylamas yod.



Shuningdek, O'zbekiston xalq artisti Tesha Muminov Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi haqida bayon qildilar. Jumladan "Hindistonning kashf etilishi" kitobida Javoharlal Neruning Bobur haqidagi quyidagi so'zlarini keltirdilar: "Bobur dilbar shaxs edi. Uyg'onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo'lib, san'atni, adabiyotni, go'zallikni sevardi".

Ko'plab badiiy filmlarda o'ynagan, teatr sahnalarida unitilmas obrazlar yaratgan, xalq ardog'iga tushgan buyuk san'atkor Tesha Muminovning chiqishi Institut xodimlarida katta taassurot qoldirdi.

So'ngra taniqli ma'naviyat targ'ibotchisi, psixolog Dilorom Isakova bu kabi tadbirlar nechog'li hayotimizda tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'ruza qildilar, yaxshilika intilish, muhabbat haqidagi o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

Qiziqarli o'tgan uchrashuv yakunida psixolog olim tomonidan Institut xodimlari o'rtasida psixologik test - trening o'tkazildi.

Tadbir judayam qiziqarli, mazmunli, bahs munozaraga boy bo'ldi.

Uchrashuvni yakunlar ekan, Institut direktori X.K. Olimov bugungi tadbirga tashrif buyurgan mehmonlar ijodiga ulkan muvaffaqiyatlar tiladi. Ularga samimiy minnatdorchilik bildirdi.